



INGLIZ TILIDA RAVON SO'ZLASHISH KO'NIKMASINI OSHIRISHDA YORDAM BERADIGAN ENG SAMARALI METODLAR

Sharifjonova Sitora

Samarqand davlat chet tillari instituti 2-kurs talabasi

Tel: +998(90)4662995

E-mail: djaborovadilorom327@gmail.com

Annotatsiya: Ko'pchilikka ma'lumki, ko'p Ingliz tili o'rganuvchilari duch keladigan asosiy muammolaridan biri bu grammatika qoidalari va juda ko'p lug'at yodlashlariga qaramasdan shu tilda gapira olmaslikdir. Ushbu maqolada bu muammoni hal qilishda yordam beradigan bir qancha foydali metodlar va speaking (gapirish)ni rivojlantirish haqida suhbatlashamiz.

Kalit so'zlar: So'zlashuv klublari, ko'zgu, kino, qo'shiq kuylash, ovoz yozish, "shadowing (soya)" uslubi, native speaker(ona tili Ingliz tili bo'lgan shaxs).

Abstract: It is well known that, one of the main problems faced by many English Learners is the inability to speak in this language despite the learning both grammar rules and a lot of vocabulary. This article we will talk about development of speaking and some useful methods.

Keywords: Speaking clubs, mirror, movies and cartoons, to sing a song, recording, "shadowing", nativ speker.

Bugungi kunda Ingliz tili tobora juda ko'plab mamlakatlarda ommalashib bormoqda. U allaqachon biznes tiliga aylanib bo'lgan va turli xildagi ta'lim sohalarida ham ingliz tili juda muhim sanaladi ushbu zamonaviy davrda. Holbuki, ko'pchilik o'quvchilar ingliz tilida ravon s'zlashish va speakingni oshirishga juda ko'pln qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Biz ushbu muammolarni hal qilishda yordam beradigan bir qancha strategiyalar va metodlar haqida to'xtalamiz.

1. Mashq qiling.

Inglizlarda "practice makes perfect", ya'ni ko'p mashq muammal natija beradi ma'nosidagi maqol bor. O'rgangan nazariy bilimlarni amalda qo'llay olmas ekansiz, ular befoyda. Qancha kop mashq qilinsa, insonning o'ziga bo'lgan ishonchi shuncha ortib boraveradi. Bu harkuni Ingliz tilida so'zlashish kerakligini anglatadi. Hattoki, til biladigan do'stingiz yoki yaqin insonlaringiz bilan ham iloji boricha Ingliz tilida so'zlashishga harakat qiling.

2. Xato qilishdan aslo qo'rqmang.



Inson xato qilishdan qo'rqib, uyalar harakat qilishdan to'xtar ekan hech qachon yuksalolmaydi, aksinch hayotda tengdoshlariga nisbaan orqada qolib ketish ehtimoli katta. Zero, qo'rquv insonning eng katta dushmani hisoblanadi.

3. O'qing, tinglang, tomosha qiling! Faqat, Ingliz tilida.

Ingliz tilida gapirishga qiynaluvchi insonlarda eshitish, o'qib tushunish, va yozishda ham bir qancha muammolarga yuz tutishadi. O'zingizda ingliz tilida kitob o'qish, qo'shiq tinglash, kino va multfilmlarni tomosha qilishni shakllantira olar ekansiz, ma'lum muddatda nafaqat speakinngda, balki listening (tinglab tushunish), reading (o'qib tushunish), writing (yozish)da ham sezilarli o'zgarishlarni sezasis. Bunday uslub orqali yangi-yangi zamonaviy so'zlar, Is ideomalar o'rganib, lug'at boyligingizni ham oshirishingiz mumkin. Ijobiy tomoni shundaki, siz ushbu yangi so'zlarni sof Ingliz tilida native speakerlar tilidan eshitib o'rganish imkoniyatiga ega bo'lasiz.

4. Speaking klublariga qo'shiling.

Jonli speaking klublariga qoshilish sizga bilimlaringizni og'zaki nutqda qo'llash va mustahkamlash, boshqa til o'rganuvchilari va native speakerlar bilan muloqotda bo'lib, speakingni oshirish imkoniyatini beradi. Xohlovchilar online soeaking klublariga ham a'zo bo'lishlari mumkin, u ham foydali va qulay.

5. O'z ovozingizni yozib oling.

Ingliz tilida gapirib turib ovoz yozib olish qayerda qanday xatoga yo'l qoyilyapti va nutqning qayerini rivojlantirish kerakligini yanada aniqroq bilib olish uchun eng yaxshi metodikalardan biri hisoblanadi. O'z ovozingizni qayta eshitish orqali talaffuzdagi xatolaringizni, grammatik qoidalarning to'g'ri yoki noto'g'ri ketayotganligini, qayerida ortiqcha to'xtab qolayotganligizni bilib olib qayta takrorlamaslikka harakat qilsangiz, yaxshi natijalarga erisha olasiz.

6. Talaffuzga e'tibor qarating.

Bilamizki, xorijiy tilda to'g'ri talaffuz bilan gapirish muhim hisoblanadi. Siz grammatik qoidalarni mukmmal bilsangiz ham, eng yoqori C1, C2 darajadagi so'zlar, ideomalarni bilsangiz va gapirishda ishlata olsangiz ham, talaffuzingiz chiroyli bo'lmas ekan, suhbatdoshingiz sizni tushunishi qiyin bo'ladi. Shunday ekan, native speakerlarning siz uchun qiyin bo'lgan so'zlarni qanday talaffuz qilishlariga e'tibor qarating va o'rganing, bunda native speakerlar bilan jonli tarzda suhbatlashish yana ham foydali bo'ladi.

7. Shadowing.

Shadowing eng yuqori darajadagi o'quv texnikasi hisoblanadi. Eshitilishi juda oson: siz o'zingiz xohlagan native speaker (misol uchun: blogger, online videolar



orqali dars beru chi o'qituvchilar va hokazo...) ni tinglaysiz va ular nima desa xuddi o'zidek talffuz va urg'u bilan bir vaqtda takrorlaysiz.

Siz buni uyda ham, ish yoki o'qish joyingizda hm bajarish imkoniyatiga egasiz. Siz buni bir o'zingiz bajarishingiz mumkin, sizdan birgina talab qilinadigan narsa-bu sizning mobil telefoningiz yoki kompyuteringiz.

Haqqoniy jonli suhbatda siz koproq fikraringizga frzalarni to'g'ri ishlatayotganingizga e'tibor qaratasiz. Ammo, native speakerga taqlid qilishda sizning bor e'tiboringiz so'zlar va tovushlarning talaffuziga, ularning gapirish uslubiga qaratilgan bo'ladi.

Quyida bu metod qay tarzda amalga oshirilishini ketma-ket keltirib o'tamiz:

1. Bir videoni tanlang.
2. E'tibor bilan tinglang.
3. Birga takrorlang.
4. Ovozingizni yozib oling.
5. Qayta-qayta tinglan videodagi bilan solishtiring.

Birinchi urinishlarda bu qiyinroq tuyilishi mumkin chunki uzoq muddat o'rganib qolgan talaffuzni birdan o'zgartirish mushkul ish, ammo siz taslim bo'lmang qayta-qayta mashq qiling va siz kutgan natijangizga erishasiz!

8. Oynaga qarab gapirish.

Bu uslub orqali siz gapirish ko'nikmangizdagi nafaqat talaffuzdagi yo grammatikadagi xatolarni payqashingiz, balki gapirayotgan paytingiz qanday ko'rinishingizga ham e'tibor bera olasiz. Misol uchun, ma'ruzachilar tomoshabinlar oldida turib so'zlay boshlashadi va buni chin yurakdan chiqayotgaligini ularga yetkazib berishni xohlashadi. Oyna oldida mashq qilish haddan tashqari urg'ularni bo'rttirib yuborish yoki umuman gaplarga urg'u bermay gapirishdan saqlaydi. Bunda bor e'tiboringiz xatti-harakatlaringiz va gapirish uslubingizga qaratiladi va bu payt siz oldindan yozib tayyorlangan qog'olarga qaray olmaysiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ingliz tilida ravon gaplashish shaxsiy hayotingiz va ish faoliyatingiz davomida ko'plab imkoniyatlarni ochib beradigan muhim omillardan biri. Ushbu maslahatlarga amal qilish va muntazam ravishda foydalanish orqali siz ingliz tilida so'zlashish mahoratingizni oshirib, boshqalar bilan uzingizga bo'lgan ishonch bilan muloqot qilishingiz mumkin. Yodda tutingki, amaliyot mukammal natijaga olib boradi va siz ingliz tilida qanchalik ko'p gapirsangiz, shunchalik speakingni yaxshilay olasiz.



Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 <https://hasanboy.uz/speakingni-o-stirish/>
- 2 <https://oxfordhousebcn.com/en/shadowing-improve-fluency-at-c2-level/>
- 3 <https://speechworks.net/use-a-mirror-to-improve-your-presentation-style/>
- 4 <https://chat.openai.com/>